

**MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTIDAGI TAYYORLOV GURUH  
BOLALARINING MANTIQIY TAFAKKURINI BAHOLASH**

*Olimova O‘g‘ilxon Arolmirza qizi*

*Namangan Davlat Universiteti*

*Pedagogika va psixalogiya fakulteti*

*4- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maktabgacha Ta‘lim Tashkilotidagi tayyorlov guruh bolalarining mantiqiy tafakkurini baholash. Maktabgacha yosh- bu katta yoshdagi bolaning to‘liq aqliy rivojlanishi uchun asos, poydevor yaratilgan davr. Bolaning mantiqiy tafakkurini rivoshlantirishga alohida e‘tibor berish kerak. Tayyorlov guruh bolalarida mantiq va fikrlashni rivojlantirish bolani maktabga muvaffaqiyatli tayyorlash va uning barkamol shaxs sifatida rivojlanishining ajralmas qismidir. Bu metodik texnologiya orqali bolakattalarga taqlid qilish va va ularning ko‘rsatmalriga amal qilish orqali bola asta sekin to‘g‘ri hukm chiqarishni ularni bir-biri bilan to‘g‘ri bog‘lashni va oqilona xulosalar chiqarishni o‘rganadi. Mazkur maqolamda maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruh bolalarining mantiqiy fikrlashini rivojlantiruvchi metodlar borasida bayon etiladi. Eng asosiysi bolaning mantiqiy fikrlashini o‘yin tarzida rivojlantirish kerak. Dars qilgandek uni majburlab rivojlantirish ijobiy natijaga olib kelmaydi. Maktabgacha yoshdagi bola har tomonlama rivojlnana olsa, keyinchalik yutuqlarga erishishi oson bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** Metodik texnologiya, Mantiq, cho‘pchak, uydirma, qo‘l motorikasi, xotira, diqqat, nomuofiqliklar metodikasi, hayvonot olami, atrof muhit haqida tasavvur, nutq, harakat kordinatsiyasi, korreksiya.

**Аннотация:** Оценка логического мышления детей подготовительной группы в ДОО. Дошкольный возраст – это период, когда создается основа для полноценного психического развития взрослого ребенка. Особое внимание следует уделить развитию логического мышления ребенка. Развитие логики и мышления у детей подготовительной группы является неотъемлемой частью успешной подготовки ребенка к школе и его развития как всесторонне развитой личности. С помощью этой методической технологии, подражая детям и взрослым и следуя их указаниям, ребенок постепенно учится делать правильные суждения, правильно связывать их между собой, делать обоснованные выводы. В этой статье я опишу методики развития логического мышления детей группы дошкольной подготовки. Самое главное – развивать логическое мышление ребенка в игровой форме. Форсированное развитие, как и обучение, не приведет к положительному результату. Если ребенок-дошкольник сможет развиваться во всех аспектах, ему будет легче добиться успехов в дальнейшем.

**Ключевые слова:** методическая технология, Логика, воображение, выдумка, моторика рук, память, внимание, прием несоответствий, животный мир, восприятие окружающей среды, речь, координация движений, коррекция.

**Abstract:** Evaluation of the logical thinking of children of the preparatory group in the Preschool Education Organization. Pre-school age is the period when the basis for the full mental development of an adult child is created. Special attention should be paid to the development of the child's logical thinking. The development of logic and thinking in the children of the preparatory group is an integral part of the

successful preparation of the child for school and his development as a well-rounded person. Through this methodological technology, by imitating children and adults and following their instructions, the child gradually learns to make correct judgments, correctly connect them with each other, and draw reasonable conclusions. In this article, I will describe the methods of developing the logical thinking of children of the pre-school preparation group. The most important thing is to develop the child's logical thinking in a playful way. Forced development, like teaching, will not lead to a positive result. If a preschool child can develop in all aspects, it will be easier for him to achieve later.

**Key words:** Methodical technology, Logic, imagination, fabrication, hand motor skills, memory, attention, method of inconsistencies, animal world, perception of the environment, speech, movement coordination, correction.

Ta'kidlash joizki, maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lim tarbiya berishda, xalq og'zaki ijodi janrida bo'lgan ertaklar bizga qo'l keladi. Turli yoshdag'i bolalar cho'pchaklarni eshitganlar, kichkintoylar mantiqsiz she'r va ertaklarni yoqtiradilar, ayrim bolalar ularni o'zlarini to'qiydilar. Masalan Xalq pedagogik namunalaridan: Zumrad va Qimmat, Echki va uning bolalari, Tulki bilan laylak, Qaynar xumcha va yana ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Bolalarning mantiqiy tafakkuri, ularning o'z fikrini to'g'ri izohlay olishi va bola mantiqan fikrlay oladimi yo'qmi o'rganishdan iborat.

Cho'pchak va uydirmalarni yana bir sohada qo'llash ehtimoli mavjud. Biz Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga R.S.Nemovning "Uydirma,, psixologik testini tavsiya etamiz. Taqdim etilgan tasvirdagi xatolarni tarbiyalanuvchi bola topishi zarur. Bu metodik texnalogiya Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari va kichik muktab yoshidagi o'quvchilarning quyidagi bilish jarayonlari va boshqa xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi:


- Bolaning atrof muhit haqida tasavvurlari rivojlanadi
- Tarbiyalanuvchining tasvirda mavjud bo'lgan o'simliklar dunyosi, hayvonot olami, atrof muxit tasavvurlarini kengayadi

- Atrof muhit haqidagi insonlarda hosil bo‘ladigan tasavvur va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liklari haqida tushuncha shakkllanadi
- Bola atrof muxit tasavvurlarini mantiqan tahlil eta olishi
- Qanchalik tarbiyalanuvchi o‘z fikrini bayon etishda ilmiy tushunchalardan foydalanishi va yana shu kabi ko‘plab xususiyatlarni aniqlashimizga yordam beradi.

Metodik texnalogiya quyidagicha: Tarbiyalanuvchi bolaga hayvonlarning beo‘xshov holatdagi tasvirli rasmini ko‘rsatamiz. Avval bola aslida uchramaydigan holatlarni aytadi va rasmida ularni ko‘rsatadi hamda haqiqatda bu voqeliklar qanday bo‘lishi kerakligini aytib beradi. Rasmni taqdim etish va topshiriqni bajarish uchun tarbiyalanuvchiga 3 daqiqa vaqt beramiz. Bu vaqt ichida bola iloji boricha ko‘proq beo‘xshov holatlarni payqashi va aslida hammasi qanday bo‘lishi kerakligini aytib tushuntirib berishi kerak.

Natijalarni qayta ishslash:

10 ball- ajratilgan vaqt mobaynida (3 daqiqada) barcha 7 ta uydurmani payqab qayerda xatolik borligini aytib, vaziyatni qoniqarli tarzda tushuntirib bersa bola bu ball bilan taqdirlanadi.





10 ball- juda yuqori

8- 9 ball - yuqori

0-1 ball- juda quyi

Kutilayotgan natija:

Nomuofiqliklar metodikasidan

foydalanim, Maktabgacha Ta‘lim Tashkilotidagi

tarbiyalanuvchi bolalarning obrazli mantiqiy tafakkuriga baho bersa bo‘ladi.

Mazkur test bolaning matabga tayyorligini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga bolada ta‘limga ham qiziqish uyg‘onadi. O‘z navbatida tayyorlov guruh bolalarining korreksiyasi uchun ham xizmat qiladi. Maktabgacha Ta‘lim Tashkilotadagi tayyorlov guruh bolalarining mantiqiy tafakkurini baholash.

### Taxlil va natijalar

Maktabgacha davr bolaning o‘sish, rivojlanish, o‘zini namoyon etishga intilish, o‘rganish bilihga ishtiyoqi kuchli bo‘lgan davrdir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatlari va aqliy salohiyati va rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagagi bola bilan ta‘lim tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shuncha barvaqt namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobjiy ta‘sir qiladi. Shunday ekan bolalar tafakkurini rivojlantirish asosiy vazifalarimizdan biriga aylandi. Buning uchun uning aqliy tafakkurini va mayda qo‘l matorikasini rivojlantirish zarur. Chunki inson qo‘l va barmoqlarida nerv tolalari joylashgan. Barmoqlar orqali inson axborot oladi. Bolalarning mayda motorikasi uning nutqi, mantiqiy tafakkurini shakllantirishiga ta‘sir etadi. Bolalarning qo‘l va bilak motorikasi to‘g‘ri rivojlantirilsa miyya faoliyati ham

shuncha tez taraqqiy etadi. Qo‘l barmoqchalari motorikasining rivojlanishi quyidagi holatlarni yuzaga keltiradi:

- tafakkurning rivojlanishi
- harakat kordinatsiyasining rivojlanishi
- xotira va diqqatning oshishi
- yozish ko‘nikmalarining shakklanishi
- nutqning ravonlashuvi

Tasavvur etish, tafakkurning rivojlanishidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar mashg‘ulotlaridagi asosiy vazifalaridan bir- bola miyyasida buyum va hodisalar haqidagi axborotni tasavvur etish. Masalan rasm chizish, turli o‘yinlar kubiklardan biron narsa yasash orqali bola ana shu axborotni tafakkurida rivojlantiradi. Ushbu tafakkur turli boshqa tafakkur turlariga asos bo‘lib, so‘z boyligi, mantiqiy tafakkurni shakllanishi, kelajakdagi maktab darslarini a‘lo darajada o‘zlashtirishda ko‘maklashadi. Bolalar o‘z tabiatlariga ko‘ra haddan tashqari qiziquvchan bo‘ladi. Ular hamma narsani bilishi juda zarur: ta‘mini tatib ko‘rishi, ushlab ko‘rishi, tushunarsiz va yangi bo‘lgan narsalarga o‘z tushuntirishlarini o‘ylab topishi, tajriba o‘tgazib ko‘rishi va o‘z farazlarini tekshirishi. Har bir ota ona o‘z farzandiga uni o‘rab turgan olamni tanishga yordam berishi zarur. Bolaga ta‘limni erta ham emas, kech ham emas balki, o‘z vaqtida berish lozim. Bolaning yoshiga muofiq shunday ta‘lim berish kerakki bunda uning barcha hissiyot a‘zolar jalb etilgan bo‘lsin. Ya‘ni bola rivojlanish jarayonida mustaqil ravishda o‘zi teginish, ko‘rish, eshitish, hidlash va mazasini bilish imkoniyatiga ega boishini ta‘minlash zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017 y. – 43 b.
2. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o‘rganishning o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590-592.
3. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O’smirlar o’rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.
4. Nishanova M.Ya., & Kamolova A.O. (2021). O’SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. Экономика и социум, (8 (87)), 42-45.
5. T. G’afforova, Sh. Nurullayeva, Z. O`qish kitobi (2-sinf uchun darslik). – T.: “O‘qituvchi”, 2016.
6. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорлик турлари ўсақида // Узлуксиз таълим. 2005. - №1.
7. кизи Ахмедова, Д. С., & кизи Камолова, А. О. (2022). ЎСМИРЛАРДА МЕЪЁРДАН ХУЛҚИЙ ОФИШ ХОЛАТЛАРИНИ КОРРЕКЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА ХУҚУҚИЙ САВОДХОНЛИКНИНГ АХАМИЯТИ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(3), 413-416.